

PRESS-RELIZ

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturini
amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida
VM-279-son 2023-yil 7-iyul**

**“Ijtimoiy himoya yagona reestri”dagi fuqarolar uchun ish o‘rni yaratgan
tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi**

“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida tadbirkorlik subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalarni qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

VMQ-279-son 07.07.2023 (<https://lex.uz/pdfs/6526182>)

Nizomga ko‘ra, “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan fuqarolar kamida 1 yil davomida ish bilan ta‘minlangan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan tadbirkorlar mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda:

- 51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rinlari yaratadigan tadbirkorlar uchun mol-mulk va yer solig‘ining amaldagi soliq stavkasi 50 foizga;
- 101 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratadiganlar uchun 75 foizga kamaytiriladi;
- 200 tadan ortiq ish o‘rinlari yaratadiganlar mazkur soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi.

Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga barcha soliqlarni (QQS va soliq agentlari sifatida to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno) ta‘minotsiz va foizsiz quyidagi muddatlarga bo‘lib to‘lash huquqi beriladi:

- 51 tadan 100 tagacha yangi ish o‘rni yaratadigan tadbirkorlarga – 3 oy muddatda;
- 101 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratadigan tadbirkorlarga – 6 oy muddatda;
- 200 tadan ortiq yangi ish o‘rni yaratadigan tadbirkorlarga – 12 oy muddatda.

Dasturga kiritilgan tadbirkorlar tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratilgan taqdirda ularga nisbatan quyidagi tartibda soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi:

- 51 tadan 200 tagacha yangi ish o‘rni yaratadigan tadbirkorlarda soliq

auditi o'tkazilmaydi;

- 200 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratadigan tadbirkorlarda barcha turdagi soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti